

Elektron Hukumatning Samaradorlik Omillari Va Raqamli Xizmatlar Infratuzilmasining Rivojlanish Tendensiyalari

Qulliev Oxun Anvar o'g'li¹, Oripov Mansur Otabekovich²

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy davlat boshqaruvi tizimida elektron hukumatning tutgan o'rni, uning samaradorligini belgilovchi asosiy omillar va raqamli xizmatlar infratuzilmasining rivojlanish tendensiyalari tahlil qilinadi. Elektron hukumat tizimining tashkiliy-huquqiy, institutsional va texnologik asoslari, shuningdek, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining davlat xizmatlari ko'rsatishdagi roli yoritilgan. Maqolada O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda raqamli xizmatlar ko'lamining kengayishi, mavjud infratuzilmaviy imkoniyatlar, shu bilan birga tizimda uchrayotgan muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari chuqur tahlil qilinadi. Shuningdek, ilg'or xorijiy tajribalar bilan solishtirma tahlillar orqali elektron hukumat samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Kalit so'zlar: Elektron hukumat, UZCERT, OneID, E-imzo, 5G texnologiyalar, DXM, Pay.gov.uz, identifikatsiya.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi zamonaviy davlat boshqaruvida elektron hukumat tizimining ahamiyatini yanada oshirdi. Elektron hukumat davlat xizmatlarini ko'rsatish jarayonini soddalashtirish, shaffoflikni ta'minlash va fuqarolarga qulaylik yaratish imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Shu bilan birga, samarali elektron hukumat tizimi davlat boshqaruvining sifatini yaxshilash hamda korrupsiya va ma'muriy to'siqlarni kamaytirishda muhim vosita hisoblanadi.


O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda raqamli xizmatlar infratuzilmasini rivojlantirish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Raqamli texnologiyalarni joriy etish va davlat xizmatlarini elektron shaklga o'tkazish sohasida sezilarli yutuqlar mavjud bo'lsa-da, tizimning samaradorligini oshirish va mavjud muammolarni bartaraf etish istiqbollari tahlil qilish muhim o'rin tutadi.

Elektron hukumat tizimining samaradorligini ta'minlash uchun bir qator aniq omillar mavjud. Tashkiliy-huquqiy asoslarning mustahkamligi elektron xizmatlarning qonuniy va tizimli ravishda amalga oshirilishini kafolatlaydi. O'zbekiston Respublikasida "Elektron hukumat to'g'risida"gi qonun hamda axborot xavfsizligini ta'minlashga doir me'yoriy-huquqiy hujjatlar tizimning barqaror ishlashiga asos yaratadi.

¹ Buxoro davlat universiteti Iqtisodiyot va turizm fakulteti Iqtisodiyot kafedrasida o'qituvchisi

² Buxoro davlat universiteti Iqtisodiyot va turizm fakulteti 3-bosqich talabasi





1-rasm. O'zbekiston Respublikasida elektron hukumat tizimining asosiy komponentlari.³

O'zbekistondagi elektron hukumat tizimini tashkil qiluvchi asosiy texnologik va tashkiliy elementlar ko'rsatilgan. Bular orasida my.gov.uz — markaziy portal sifatida xizmatlarni onlayn ko'rsatadi, OneID va e-imzo esa foydalanuvchi identifikatsiyasi va huquqiy tasdiqlovchi vositalardir. Pay.gov.uz orqali to'lovlar amalga oshiriladi, DXMlar esa aholiga amaliy yordam ko'rsatadi. Tizimlararo axborot almashinuvi, ma'lumotlar bazalari va axborot xavfsizligi xizmatlari (UZCERT) tizimning uzluksiz va xavfsiz ishlashini ta'minlaydi. Raqamli savodxonlik markazlari esa foydalanuvchilarni xizmatlardan foydalanishga tayyorlaydi. Bu komponentlar uyg'un ishlagan taqdirda elektron hukumat tizimi samarali va barqaror faoliyat yuritadi.

Davlat organlari va idoralari o'rtasidagi axborot almashinuvining samarali mexanizmlari tizimning tezkor va sifatli xizmat ko'rsatishini ta'minlaydi. Markazlashtirilgan ma'lumotlar bazasi va yagona identifikatsiya tizimi raqamli xizmatlarning uyg'un va muvofiqlashtirilgan ishlashini ta'minlaydi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining zamonaviy va ishonchli infratuzilmasi — yuqori tezlikdagi internet tarmoqlari, bulutli hisoblash xizmatlari, kiberxavfsizlik vositalari — elektron hukumatning barqaror ishlashini kafolatlaydi.

Fuqarolarning raqamli savodxonligi samaradorlikni oshirish uchun zarur shartlardan biridir. Raqamli xizmatlardan samarali foydalanish uchun aholi orasida axborot texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmalarini oshirish, onlayn xizmatlardan foydalanish bo'yicha ko'mak va qo'llanmalar yaratish talab etiladi.

Shuningdek, tizimning foydalanuvchi ehtiyojlariga moslashuvchanligi, xizmatlarning qulayligi va mavjud muammolarga tezkor javob berish imkoniyatlari samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi.

Yuqoridagi omillar elektron hukumat tizimining samarali faoliyat ko'rsatishi uchun zarur bo'lgan asosiy tarkibiy qismlardir va ularning uyg'un ishlashi raqamli xizmatlarning sifatini oshirishni ta'minlaydi.

Raqamli xizmatlarning samarali ishlashi ularni qo'llab-quvvatlovchi texnologik infratuzilmaga bog'liq bo'lib, so'nggi yillarda O'zbekistonda ushbu sohada sezilarli o'zgarishlar yuz berdi. "Elektron hukumat" tizimini rivojlantirish maqsadida davlatlararo axborot tizimlari, yagona interaktiv davlat

³ <https://ilmiyanjumanlar.uz/uploads/conferences/0013/M-13.pdf>



xizmatlari portali (my.gov.uz), davlat xizmatlari markazlari va ularni integratsiyalovchi platformalar faoliyat yuritmoqda.

Raqamli infratuzilmaning eng muhim elementi sifatida barqaror internet tarmog'i va optik tolali aloqa liniyalarining kengayishi ajralmas hisoblanadi. "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida mamlakat bo'ylab yuqori tezlikdagi internet qamrovi yil sayin kengaymoqda. 2024-yil holatiga ko'ra, barcha tuman markazlarida optik tolali internet mavjud bo'lib, mobil aloqa operatorlari 4G va ayrim hududlarda 5G texnologiyalarini joriy qilmoqda. Shuningdek, raqamli xizmatlar uchun zarur ma'lumotlar bazalari va axborot tizimlari integratsiyasi kuchaymoqda. Yagona identifikatsiya tizimi (OneID) orqali xizmatlar o'rtasida real vaqt rejimida ma'lumot almashinuvi yo'lga qo'yilgan, bu esa foydalanuvchilarga takroriy ma'lumot topshirish zaruratini kamaytiradi hamda xizmat ko'rsatish tezligini oshiradi.

Biroq, hududlar o'rtasida infratuzilma rivojlanishidagi tafovutlar xizmatlar sifati va qamroviga ta'sir qilmoqda. Shu sababli, raqamli infratuzilmani teng va barqaror rivojlantirish ustuvor vazifa bo'lib qolmoqda.

Xalqaro tajribada Yaponiya, Estoniya, Janubiy Koreya kabi mamlakatlarning markazlashgan, xavfsiz va foydalanuvchiga yo'naltirilgan raqamli xizmatlar modeli samaradorlikni oshirishda asosiy omil hisoblanadi. Bu muvaffaqiyat infratuzilmaning texnik, huquqiy va institutsional jihatdan uyg'un rivojlanishiga bog'liq.

Internet tezligi bo'yicha xalqaro reytingda O'zbekiston 207 mamlakat orasida 181-o'rinni egallaydi. O'zbekistonda o'rtacha tezlik 1,37 Mbit/soniyani tashkil etadi va bu ko'rsatkich mintaqada pastlardan biridir. So'nggi ikki yil ichida internet tezligi 80 foizga oshgan bo'lsa-da, 5 gigabaytlik faylni yuklab olish uchun o'rtacha 8 soat 18 daqiqa vaqt talab qilinadi. Internet tezligi yuqori bo'lgan davlatlar qatorida Tayvan (85,02 Mbit/soniya), Singapur (70,86 Mbit/soniya), Shvetsiya (55,18 Mbit/soniya) va Daniya (49,19 Mbit/soniya) yetakchilik qilmoqda.⁴

2-jadval Mamlakatlar bo'yicha internet tezligi va baholangan darajalari (Mbit/soniya)⁵

Mamlakat	Internet tezligi (Mbit/soniya)	Darajasi
Taiwan	85.02	Eng yaxshi
Singapore	70.86	Eng yaxshi
Jersey	67.46	Eng yaxshi
Kyrgyzstan	2.50	O'rtacha
Uzbekistan	1.37	O'rtacha
Tajikistan	1.05	O'rtacha
EquatorialGuinea	0.51	Eng yomon
Timor-Leste	0.45	Eng yomon
Yemen	0.38	Eng yomon

Jadvalda internet tezligi bo'yicha dunyodagi eng yuqori ko'rsatkichlarga ega davlatlar (yaxshi), O'zbekiston va boshqa o'rta darajadagi davlatlar hamda internet tezligi eng past bo'lgan davlatlar (yomon) ko'rsatilgan. Ushbu ma'lumotlar raqamli xizmatlar infratuzilmasi rivojlanishining jahon va mintaqaviy holatini aks ettiradi.

Raqamli xizmatlar infratuzilmasining kengayishi va sifatining yaxshilanishi elektron hukumat tizimining barqaror ishlashiga, fuqarolarning davlat xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarining kengayishiga xizmat qiladi hamda raqamli iqtisodiyotning rivojlanishiga asos bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasida elektron hukumat tizimining rivojlanishi so'nggi yillarda jadal sur'atlarda davom etmoqda. Ushbu jarayonda davlat xizmatlarini elektron shaklga o'tkazish, raqamli infratuzilmani kengaytirish, shuningdek, fuqarolarning raqamli savodxonligini oshirish kabi kompleks

⁴ Davlatlarning internet tezligi bo'yicha reytingi e'lon qilindi. O'zbekiston oxirgi o'rinlarda

⁵ Davlatlarning internet tezligi bo'yicha reytingi e'lon qilindi. O'zbekiston oxirgi o'rinlarda.



chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bu esa o'z navbatida davlat boshqaruvining samaradorligini sezilarli darajada oshirishga xizmat qilmoqda.

Amaliy holat tahlili shuni ko'rsatadiki, my.gov.uz yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali 430 dan ortiq xizmat onlayn shaklda taqdim etilmoqda. 2023-yilda ushbu portaldan foydalanish bo'yicha 22 milliondan ortiq murojaat qayd etilgan bo'lib, bu ko'rsatkich elektron hukumat tizimining aholiga yaqinlashishi va keng qamrovda foydalanilayotganidan dalolat beradi.

Biroq, tizimning barqarorligi va sifatiga ta'sir etuvchi muhim omil sifatida texnik infratuzilmaning holati ajralmas o'rin tutadi. O'zbekiston Respublikasi bo'ylab optik tolali internet tarmoqlari kengaytirilmoqda, mobil aloqa sohasida esa 4G va 5G texnologiyalari asta-sekin joriy etilmoqda.⁶ Shunga qaramay, xalqaro reytinglarda mamlakat internet tezligi va qamrovi bo'yicha past o'rinlarda joylashganligi, ayniqsa qishloq hududlarda internet sifatining sustligi raqamli xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini cheklab qo'yimoqda.

Shu bilan birga, elektron identifikatsiya tizimi sifatida OneID joriy etilishi davlat organlari o'rtasida ma'lumot almashinuvi jarayonlarini soddalashtirdi va foydalanuvchilarga qulaylik yaratdi. 2022-yil oxiriga kelib, ushbu tizim orqali 4 milliondan ortiq fuqaro ro'yxatdan o'tgan va bu elektron xizmatlarning samaradorligini oshirishga katta hissa qo'shgan.

Fuqarolarning raqamli savodxonligi sohasida olib borilgan so'rovnomalar, shuningdek, ijtimoiy so'rov natijalari raqamli xizmatlardan foydalanishda ma'lumot yetishmasligi va texnik qiyinchiliklar mavjudligini ko'rsatmoqda. Shuning uchun ham davlat tomonidan bepul raqamli savodxonlik kurslari tashkil etilib, aholini ushbu xizmatlardan foydalanishga keng jalb etish choralari ko'rilmqda.

Hududlar o'rtasidagi raqamli tafovutlar esa eng katta muammolardan biri hisoblanadi. Shahar va qishloq joylaridagi texnik imkoniyatlarning farqi elektron xizmatlar qamrovi va sifatiga bevosita ta'sir qilmoqda. Shu munosabat bilan, infratuzilmani barqaror rivojlantirish, aholi o'rtasida raqamli savodxonlikni oshirish va xizmatlarning teng qamrovini ta'minlash borasida ustuvor vazifalar belgilanmoqda.

Xalqaro standartlar va reytinglarga ko'ra, O'zbekiston elektron hukumat tizimining rivojlanishida sezilarli yutuqlarga erishgan bo'lsa-da, raqamli infratuzilma va inson kapitali sohasida yanada chuqur islohotlarga ehtiyoj mavjud. Shu sababli, xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribalarini o'rganish va ularni amaliyotga joriy etish orqali tizim samaradorligini oshirish imkoniyatlari kengaymoqda.

Amaliy tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda elektron hukumat tizimini yanada rivojlantirish uchun texnik infratuzilmani yaxshilash, fuqarolarning raqamli savodxonligini oshirish, hamda hududlar o'rtasidagi tafovutlarni kamaytirishga qaratilgan siyosatlarni izchil amalga oshirish zarurdir.

Ushbu maqolada O'zbekiston elektron hukumat tizimining samaradorlik omillari va raqamli xizmatlar infratuzilmasining rivojlanish tendensiyalari o'rganildi. Elektron xizmatlarning kengayishi va OneID tizimining joriy etilishi xizmatlar sifatini oshirdi. Biroq, internet qamrovi pastligi, raqamli savodxonlik yetishmovchiligi hamda hududiy tafovutlar tizim samaradorligiga salbiy ta'sir qilmoqda. Shu sababli, elektron hukumat tizimini rivojlantirish uchun texnik infratuzilmani kengaytirish, raqamli savodxonlikni oshirish va hududlararo tafovutlarni kamaytirish zarur. Bu esa davlat xizmatlari sifatini oshirish va raqamli iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Abdulloev, A. J. (2023). THE ROLE AND IMPORTANCE OF STRATEGIC PLANNING IN MARKETING.
2. Abdullayeva, H. N., & Sardor, M. (2024). RAQAMLASHTIRISH-MAMLAKAT TARAQQIYOTNING MUHIM OMILI. INTELLECTUAL EDUCATION TECHNOLOGICAL SOLUTIONS AND INNOVATIVE DIGITAL TOOLS, 3(27), 113-121.

⁶ Speedtest Global Index – Internet Speed around the world – Speedtest Global Index



3. Abdullayeva, H. (2024). KORXONA FAOLIYATIDA INNOVATSION MARKETINGDAN FOYDALANISH. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 49(49).
4. Axrorovna, B. M. (2022). The Importance of Digitizing the Tax System. *European Journal Of Business Startups And Open Society*, 2(11), 1-5.
5. Giyazova, N.B. (2024). INCREAZING THE EFFICIENCY OF WASTE RECYCLING IN THE ECONOMY OF OUR COUNTRY. *MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH*, 3(34), 455-461.
6. Giyazova, N.B., & Sh,B.S. (2024). ZAMONAVIY RAQAMLI IQTISODIYOTDAGI MUAMMOLAR VA CHORA-TADBIRLAR. *Science and innovation*, 3(Special Issue 42), 482-489.
7. Shukhratovna, U. M., & Bayazovna, G. N. (2025). FOREIGN EXPERIENCE IN THE DEVELOPMENT OF MOBILE INTERNET. *INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM*, 6(49), 250-256.
8. Таирова, М. М., & Зойитов, Д. (2024). ЗНАЧЕНИЕ МАРКЕТИНГОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ В СЕЛЬСКОМ ХОЗЯЙСТВЕ. *Science and innovation*, 3(Special Issue 42), 371-376.
9. Таирова, М. М., & Рахматуллаева, Ф. М. (2015). Условия формирования инновационной экономики. *Наука 21 века: вопросы, гипотезы, ответы*, (1), 115-118.
10. Hakimovna, U. M., & Muhammedrisaevna, T. M. S. (2022). The role of banking and accounting in the development of small business and entrepreneurship. *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 8.036*, 11, 136-143.
11. Sayfullayeva, M. (2023). Establishment Of Agritourism Clusters In Uzbekistan Based On The Principles Of Sustainable Tourism. *Центр Научных Публикаций (Buxdu. Uz)*, 35(35).
12. Raxmatullayeva, F. M. (2024). MINTAQALAR RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING AHAMIYATI. *Indexing*, 1(1).
13. Raxmatullayeva, F. M., & Shaxzod, J. (2024). RAQAMLI IQTISODIYOTNING RESURLAR ISTE'MOLIGA TA'SIRI. *MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH*, 3(34), 496-502.
14. Mubinovna, R. F. (2025). RAQAMLI IQTISODIYOTDA PLATFORMALAR AHAMIYATI. THE THEORY OF RECENT SCIENTIFIC RESEARCH IN THE FIELD OF PEDAGOGY, 3(30), 220-225.
15. Rasul o'g'li, K. U., & Bayazovna, G. N. (2025). KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI IQTISODIYOTNING ROLI. *INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION*, 4(37), 342-348.
16. Aliyor o'g'li, X. S., & Bayazovna, G. N. (2025). KIBERXAVFSIZLIK–RAQAMLI IQTISODIYOTNI RIVOJLANISHINING MUHIM OMILI. *THE THEORY OF RECENT SCIENTIFIC RESEARCH IN THE FIELD OF PEDAGOGY*, 3(31), 113-117.
17. Shuxratovich, T. B., & Bayazovna, G. N. (2025). INSON KAPITALINING RAQAMLI IQTISODIYOTDAGI O 'RNI. *INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2024*, 4(38), 187-191.
18. Shokirjon o'g'li, J. S., & Bayazovna, G. N. (2025). RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA EKOLOGIK BARQARORLIK: BLOKCHEYNNING YASHIL IQTISODIYOTDAGI ROLI. *INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM*, 6(50), 418-425.
19. Ramz o'g'li, S. D., & Bayazovna, G. N. (2025). RAQAMLI VALYUTA VA UNING IQTISODIYOTGA TA'SIRI. *THE THEORY OF RECENT SCIENTIFIC RESEARCH IN THE FIELD OF PEDAGOGY*, 3(31), 130-135.



20. Rustam o'g'li, R. J., & Bayazovna, G. N. (2025). MOBIL TO 'LOVLAR VA ULARNING IQTISODIYOTDAGI AHAMIYATI. *THE THEORY OF RECENT SCIENTIFIC RESEARCH IN THE FIELD OF PEDAGOGY*, 3(30), 193-197.
21. Giyazova, N. B., & Azimxon ogli, Q. S. (2024). GLOBALLASHUV SHAROITIDA ENERGIYA RESURSLARIDAN OQILONA FOYDALANISH. *FORMATION OF PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY AS INTERDISCIPLINARY SCIENCES*, 3(29), 159-163.
22. Giyazova, N. B., & Dildora, I. (2024). YASHIL IQTISODIYOT VA UNING KELAJAKDAGI ISTIQBOLLARI. *FORMATION OF PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY AS INTERDISCIPLINARY SCIENCES*, 3(29), 213-217.
23. Bayazovna, G. N., & Ayubovich, X. A. L. (2024). THE CONCEPT OF FINANCE AND THE STAGES OF ITS FORMATION. *Raqamli iqtisodiyot (Цифровая экономика)*, (7), 673-679.
24. Bayazovna, G. N. (2024). GEOMARKETINGNING RESTORAN BIZNESIGA TADBIQ ETILISHINING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI. *MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH*, 3(34), 484-490.
25. Giyazova, N. (2023). The share of world countries in the textile industry and the importance of marketing in its development. *Центр Научных Публикаций (Buxdu. Uz)*, 27, 27.
26. O'zbekiston Respublikasi Raqamli Texnologiyalar Vazirligi. "Elektron hukumat tizimining rivojlanishi bo'yicha yillik hisobot", 2023. URL: <https://mitc.uz>
27. My.gov.uz. Davlat xizmatlarining yagona interaktiv portali statistikasi, 2023. URL: <https://my.gov.uz>
28. Ookla Speedtest. Global Internet Speed Index, 2024. URL: <https://www.speedtest.net/global-index>
29. BMT. UN E-Government Survey 2022: Digital Government in the Decade of Action for Sustainable Development, 2022. URL: <https://publicadministration.un.org/egovkb/en-us/Reports/UN-E-overnment-Survey-2022>
30. O'zbekiston Respublikasi Hukumatining. "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi, 2021. URL: <https://government.uz>
31. Xasanova, S. (2023). Analysis of the Work Carried Out in Uzbekistan and the World to Prevent Tax Violations. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 3(12), 47-50.
32. Islamovna, X. S. (2024). OZIQ-OVQAT TOVARLARI B2B BOZORI GEOGRAFIYASINI KENGAYTIRISHDA AXBOROT TIZIMLARIDAN VA RAQAMLI MARKETING STRATEGIYALARIDAN FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH. *Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting*, 4(03), 493-500.
33. Islamovna, X. S. (2024). AHOLINING O'ZINI O'ZI BANDLIGINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI. *Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting*, 4(03), 390-396.
34. Islamovna, X. S., & Karimbek, K. (2024). IQTISODIYOTDA ZAMONAVIY MENEJER BOSHQARUVI. *Gospodarka i Innowacje*, 46, 361-365.
35. Наврўззода, З. Б., & Хасанова, С. И. (2022). АҲОЛИНИНГ ЎЗИНИ ЎЗИ БАНДЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ–ИҚТИСОДИЙ БАРҚАРОРЛИКНИ ТАЪМИНЛАШ ОМИЛИ СИФАТИДА. *Central Asian Academic Journal of Scientific Research*, 2(5), 769-773.
36. Jamshedovna Q. H. GREEN ECONOMY AS A FACTOR OF SUSTAINABLE DEVELOPMENT //AMERICAN JOURNAL OF EDUCATION AND LEARNING. – 2024. – Т. 2. – №. 5. – С. 785-794.
37. Otabek o'g'li O. M., Jamshedovna Q. H. RAQAMLI IQTISODIYOTDA FOYDALANUVCHI MA'LUMOTLARINING XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDAGI MUAMMOLAR VA



YECHIMLAR //INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2024. – 2025. – T. 4. – №. 38. – C. 167-174.

38. Jamshedovna Q. H., Lutfullayevna X. L. BUSINESS MANAGEMENT: WAYS TO ACHIEVE DOMINANCE IN THE MARKET //INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM. – 2025. – T. 6. – №. 49. – C. 247-249.
39. Khurramov O. K., Kasimova H. J. The main advantages of internet marketing and differences from traditional marketing //Мировая наука. – 2019. – №. 4 (25). – C. 65-68.
40. Jamshedovna Q. H., Askarovich S. M. Effective Development of the Economy on the Basis of "Green Economy". – 2023.

